


## МАКТАБГАЧА BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI



*Nurulloeva Manija Qurbon qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'limg yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Qayumova Mohinur Murodullayevna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti ingliz fani o`qituvchisi*

*Tel: +998888109707*

*Tel: +998934261581*

*[manijanurulloeva29@gmail.com](mailto:manijanurulloeva29@gmail.com)*

*[sohibaerniyozova@gmail.com](mailto:sohibaerniyozova@gmail.com)*

*[mohinurqayumova10@gmail.com](mailto:mohinurqayumova10@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'linda bolalar uchun chet tillari o'qitish metodlari hamda ulardan foydalanish usullari keng targ'ib etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili o'qitishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari, ingliz tilli bu dunyo tilli ekanligi uchun uni maktabgacha ta'lim ya'ni boxcha yoshidan o'rgatish lozimligi ko'rsatilgan. Bolalarga xorijiy tillarni yuqori malakali kadrlar va texnologiyalar orqali o'rganish va o'rgatish usullari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar :** ta'lim, ingliz-tili, bolalar, metod,Maktabgacha, chet tili, fonetik, maqsad, mashg'ulot, usul, matab, zamonaviy,

**Abstract:** In this article, methods of teaching foreign languages to children in preschool education and their use are widely promoted. Possibilities of using effective methods of teaching English to preschool children, English being a world language, it should be taught from preschool age, i.e. from kindergarten age. The methods of learning and teaching foreign languages to children through highly qualified personnel and technologies were discussed.

**Key words:** education, English, children, method, preschool, foreign language, phonetic, purpose, training, method, school, modern,

**Аннотация:** В данной статье широко пропагандируются методы обучения иностранным языкам детям в дошкольном образовании и их использование. Возможности использования эффективных методов обучения английскому языку детей дошкольного возраста. Поскольку английский язык является мировым языком, его следует преподавать с дошкольного возраста, т.е. с

детского сада. Обсуждались методы изучения и преподавания иностранных языков детям посредством высококвалифицированных кадров и технологий.

**Ключевые слова:** образование, английский язык, дети, метод, дошкольный, иностранный язык, фонетика, цель, обучение, метод, школа, современный,

### K i r i s h

Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab bir tomondan, shuningdek ota - onalar til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushinishi boshqa tomondan bu lahza chet tilini erta o'rganishni ayniqsa mashhur va dolzarb qilish. Manbalardan bizga ma'lumki, kishilik jamiyatida insonlar bir qator tillarni bilishga intilganlar va unga ehtiyoj sezganlar. XX asr tilshunosligining mashhur namoyondalaridan biri Yevgenit Dmitriyevich Polivanov 46 tilni mukammal bilgan, o'zbek tili va shevalarini o'rganib tahlil qilgan holda do'ppi-chopon kiyib, "Men o'zbekman, familiyam Polvonov" deb o'zbeklar orasida o'zbekday yurgan olim sanaladi. Prezidentimizning "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi (2012-yil 10-dekabr) qarori bu borada dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelayotir. Mazkur qarorga binoan, ta'lim tizimining barcha bosqichlari oldiga chet tillarini uzlusiz o'rganilishini tashkil etish, shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonavit o'quv uslubiy materiallar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

**Asosiy qism.** Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Yoshlarimiz zamonaviy va har taraflama yetuk malaka ega kadr bo'lib yetishishlari uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari yuksalish asrida bilim olishga anchagina ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, biz yoshlar O'zbekiston kelajagini porloq qurishimiz uchun, avvalo, samarali va sifatli bilimga ega bo'lishimiz zarur. Maktabgacha ta'limning maqsadi bolani maktabga tayyorlash, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qobiliyatlarini namoyon qilshika ko'mak berishdir. Shularni inobatga olgan holda, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlandi. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish orqali osonroq o'rganadilar. Agarda xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar orqali o'rgangan ma'lumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va

dars jarayonida huddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan ta'lim barcha ta'lim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'rganish turlari o'quvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Chet tilini o'rgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar doim bo'lib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismdir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Bunga yana bir misol sifatida, bolalarga ingiliz tilidagi yoki o'zları o'rganayotgan tildagi "listening" ya'nı eshittirishlarni qo'yib berish hamda bu bolaga qanchalik ta'sir qilishini kuzatish zarur. Agar ularga bu eshittirishlar tushunarsiz bo'lsa undanda osonroqlarini tinglatish zarur. Shuningdek "listening" dagi so'zlarni avval tarjimasini yozdirib ularga ma'nosini tushuntirish hamda nutqiy faoliyatda qanday qo'llanilishini tushuntirish lozim.

Chet tilni o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar yoshidan boshlashning afzalligi bola qancha yosh bo'lsa, uning so'z boyligi shuncha kamroq bo'ladi. Ammo shu bilan birga uning nutqini egalashga bo'lgan ehtiyojlari ham kambo'ladi: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona tili va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi juda katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi sezishlari yorqinroq bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chettilini o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy jihatdan nochor tashkil etilgan ingliz tili mashg'ulotlari bolalarda uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishni va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchksizlikni hosil qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- fonetik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyatini ya'nı inglizcha so'zlarni o'qituvchidan so'ng ya'nı to'g'ri talaffuz qilishi bosqichma-bosqich shakllantirish;
- inglizcha so'zlarni o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;

- ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil bayon tuzish.

K.D. Ushinskiyning ta'kidlashicha, chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi. Olimning yozishicha, chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Birinchi maqsad – til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish. Ikkinchisi esa, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tomonlama rivojlantiradi. Uchinchi maqsad – shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirisha olish. Keyingisi esa, shu xorijiy mamlakat odamlari bilan bemalol o'zlarining tillarida xat yozisha olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, bolalar ona tilini o'z-o'zidan, beixtiyor o'rganishni boshlashadi, chet tilini esa ongli ravishda qabul qilishadi. Shuning uchun ham, til o'rganish ko'nikmalari bolalarda quyidagicha shakllanadi "ona tili —pastdan tepaga qarab, chet tili esa—yuqoridan pastga qarab rivojlanadi"

Shunday qilib, dunyoviy bilimlarni bola til orqali qabul qiladi.I. A. Zimnyayaning fikriga ko'ra esa, bolalar ta'lim jarayonida ona tili tajribalariga tayangan holda, chet tilini o'rganishlari kerak, faqat shundagina xorijiy so'zlarni xotirasida saqlash oson kechadi

Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikati olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan.

Davlatimiz tomonida chet tillariga bo'lgan e'tiborni quyidagicha ko'rishimiz ham mumkin:

— Xalqaro sertifikatning dastlabki va o'rta darajasini olgan o'qituvchilarning oylik maoshiga 40 foiz, yuqori natija ko'rsatganlarga 50 foiz ustama berilishi belgilandi.

— Bundan tashqari, yuqori ball olgan o'qituvchilarga xalqaro sertifikat olish uchun test topshirish xarajatlari qoplab beriladi. Kelgusi yildan boshlab, ishga qabul qilinayotgan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritiladi.

Bolalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun sinfdagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi.Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarning metodikasi katta ro'l o'ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib uni gapirishga undaysiz, o'quvchilar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan

birgalikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi.

### MUHOKAMA METODI

Yana bir samarali metodlardan biri bu ularning o'zлари yoqtirgan va sevibo'ynaydigan narsalaridan foydalangan holda o'rgatishdir. Ma'lumki, ota-onar farzandiuchun kerakli birinchi raqamli shaxslardir. Shu uchun ham ularning ta'lim tarbiyasihamda bilim olishlari uchun avvalo ular javobgar hisoblanishadi. Shuningdek, ulardailk qiziqishni uyg'otish, ma'lum bir yo'nalish tomoga boshlash uchun ham ularningahamiyati kattadir. Bunda biz ko'rishimiz mumkinki, bola o'zning sevimlio'yinchog'iga yoki kitobiga qiziqishi boshqa narsalardan ko'ra ko'proq bo'ladi. Va shuorqali bola yangi so'z yoki terminni o'rganyotgan vaqtida, o'sha yoqtirgan narsasiorqali o'rganadi. Va o'sha sevimli o'yinchog'i orqali o'sha so'z ham sevimliga aylanadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bolalarning qiziqishi ularning kundalik hayotda bajarayotgan ishlariga, o'yinlariga asoslanadi. Shuning uchun ilmiy yo'nalishni ham kundalik yumushlarga, qiziqishlarga bog'lab o'rgatish pedagogning mahoratiga bog'liq. Qishloq joylardagi boshlang'ich maktab o'quvchilari odatda ingliz tili muhitidan. ancha uzoq bo'lgan sharoitda o'sishadi va bolalarning fikrashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Hozirgi kunda Xitoylik bog'cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli bog'chalardagi o'qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Astafieva M.D. Holidays for children learning English. - M.: Mozaika-sintez, 2009.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Theory and practice of teaching foreign languages. Primary school: methodological guide.-M.: Iris-press, 2004.
3. Guseva L.P. We play, teach, master - we want to know English. - Rostov n / a: Phoenix, 2009.
4. Zemchenkova T.V. English for preschool children. - M.: VAKO, 2008.

5. Ivanova M.V. English for children. - M.: AST: Astrel, 2009.
6. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
7. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
8. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
9. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbanaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 4494-498.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantrish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'riida"gi PQ-4312-sonli qarori
12. M. Berdiyeva, S. Bo'ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalrning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.

**Veb-sayt:**

1. <https://blog.xabar.uz/post/mmaktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-oqitishning-zamo>.
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/sekrety-obucheniya-doshkolnikov-angliiskomu-vozrastnye/>
3. <https://spbtp.ru/uz/igra-aktivnyi-metod-obucheniya-nemeckomu-yazyku-aktivnye-metody>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullari-nemis-tili-misolida>